

BO'LAJAK LOGOPED-O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLILIGI VA UNING KOMPONENTLARI

Xusniddinova Barno

Nizomiy Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Logopediya kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada bo'lajak logoped-o'qituvchining kasbiy kompeteliligi va uning komponentlarini nazariy jihatdan adabiyotlar tahlili berilgan. Logoped – o'qituvchining kasbiy, shaxsiy sifatlari va korreksion ish olib borishda ushbu sifat-larning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: logoped-o'qituvchi, kompetensiya, kompetentlik, kasbiy sifatlar, de-ontologik madaniyat, shaxsga yo'nalganlik.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ БУДУЩЕГО ЛОГОПЕДА-ПЕДАГОГА И ЕЕ СОСТАВЛЯЮЩИЕ

Хуснидинова Барно

Низомий – преподаватель логопедического факультета Ташкентского государственного педагогического университета.

Аннотация: в статье проводится теоретический анализ профессиональной компетентности будущего логопеда-педагога и ее составляющих. Виделени профессионалние и личностные качества логопеда-педагога и значение этих качеств при проведении коррекционной работы.

Ключевые слова: логопед-педагог, компетентност, компетентност, профессионалние качества, деонтологическая культура, личностная направленност.

PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE FUTURE SPEECH THERAPIST-TEACHER AND ITS COMPONENTS

Khusniddinova Barno

teacher of Nizomiy the speech therapy department of Tashkent State Pedagogical University

Annotation: The article provides a theoretical analysis of the professional competence of the future speech therapist-teacher and its components. The professional and personal qualities of a speech therapist-teacher and the importance of these qualities in carrying out correctional work are highlighted.

Key words: speech therapist-teacher, competence, competency, professional qualities, deontological culture, personal orientation.

Kirish. Jahon ta'lrim muassasalarida bo'lajak logoped - o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishda deontologik yondashuvdan foydalanish, deontologik madaniyatini rivojlantirishning didaktik ta'minotini yaratish va raqobatbardosh logoped - o'qituvchilarni tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish texnologiyalarini amaliyotga tafbiq etilmoqda.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodologiyasi, pedagogik-psixologik jihatlari, tamoyillari va texnologiyalari hamda yondashuvning shaxs faoliyati va kasbiy kamolotidagi o'rni, shuningdek, kasbiy o'zini o'zi takomillashtirishning konseptual masalalari MDH mamlakatlari olimlaridan: T.Bazarov, A.Derkach, I.Zimnyaya, E.Zeyer, N.Kuzmina, YE.Kudryavseva, A.Markova va boshqalarning tadqiqot ishlarida ko'rilgan va ta'lrim muhitiga ta'siri bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borgan.

Xorijlik olimlardan D.Bartram, J.Rawen, W.Hutmacherlar tomonidan ta'limga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi strukturasи, malaka oshirish jarayoniga kompetentli yondashuvlar masalalari atroficha o'rganilgan.

Bo'lajak defektologlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ba'zi masalalari V.Raxmonova, M.Xakimova, Y.Chicherina, D.Nurkeldiyeva, P.Pulatova, D.Yakubjonova, SH.Shokirova, L.Xayitov, F.Teshaboyeva, M.Maxmudovalar, O.Bozorov tomonidan tadqiq etilgan.

Kompetensiya - bu shaxsning emas, balki joyning o'ziga xos xususiyati insonning ijtimoiy rolining

parametridir. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi - bu o‘qituvchi va olim sifatida kasbiy faoliyatining asosini tashkil etadigan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar tizimidir.

Bugungi kunda logopedlarining kasbiy tayyorgarligida eng dolzarblari: a) kasbiy kompetensiya, sifatli ko‘nikmalar, bilimlar, pedagogik, ijtimoiy sezgi; b) ijtimoiy yo‘nalish, shaxslarning ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini va muayyan vaziyatni, nizolashmaslikni hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyat sanaladi.

L.S.Volkova ta’kidlaganidek, o‘qituvchining shaxsi bolalarda nutq buzilishlarini tuzatish va oldini olish bo‘yicha ishlarning samaradorligi uchun muhimdir, bu yuqori kompetentlik va quyidagi fazilatlar bilan tavsiflanishi kerak: gumanistik ishonch, fuqarolik axloqiy etukligi, kognitiv va pedagogik yo‘nalish; kasbga ishtiyoq, bolalarga muhabbat; o‘ziga va boshqalarga talabchanlik,adolatlilik, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini tanqid qilish; pedagogik ijodiy tasavvur va kuzatish; samimiylilik, kamtarlik, mas’uliyat, qat’iylik va puxtalik [1, 20-bet].

M.Xakimova o‘qituvchi-defektolog ish faoliyatining o‘ziga xos xususiyati uning ko‘p qirrali, murakkab va ijodiy xarakterga ega ekanlidigadir. U bolalar jamoasining tadqiqotchisi, psixologi, tarbiyachisi sifatida o‘zida nazariy va amaliy bilimlarni mujassamlashtirishi kerak. O‘qituvchi doimo izlanib, o‘z malakasi va pedagogik faoliyatini takomillashtirib borishi kerak [2].

Bo‘lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyasining tuzilishi, YE.N.Jukatinskayaning[3] fikricha, quyidagi kompetensiyalar to‘plami orqali ifodalanishi mumkin:

1. umumiyy pedagogik - turli xil pedagogik tizimlarda keng ko‘lamli ta’lim va tarbiya vazifalarini hal qilish muvaffaqiyatini belgilaydigan asosiy o‘zgarmas psixologik va pedagogik bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish; bu ma’lum kasbiy va pedagogik talablarga muvofiqligi kelajakdagagi o‘qituvchining ixtisoslashuvidan mustaqildir; bu universal inson majmuasiga ega bo‘lishdir. muvaffaqiyatli kasbiy-pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxs fazilatlari;

2. maxsus - ushbu kasbga xos bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

3. kasbiy va pedagogik faoliyat sohasida olingan bilimlarning yig‘indisi bilan ta’minlangan kasbiy va pedagogik harakatlarni amalga oshirishning o‘zlashtirilgan usuli sifatida tushuniladigan kasbiy va pedagogik mahoratga texnologik egalik;

4. kommunikativ - tinglovchilar bilan to‘g‘ri munosabatlarni o‘rnatish; hamkasblar bilan professional muloqot usullarini o‘zlashtirish;

5. refleksiv-o‘qituvchining shaxsiy yutuqlarini tartibga soluvchi, kasbiy o‘sish, pedagogik mahoratni oshirish motivatori. Bu vakolat o‘z-o‘zini bilish (o‘zini kuzatish, o‘zini tahlil qilish, tanqidiy o‘zini baholash), o‘zini qoralash (o‘zini tanqid qilish, o‘zini rag‘batlantirish, o‘zini majburlash va hokazo qobiliyatida namoyon bo‘ladi.o‘z-o‘zini anglash(o‘z-o‘zini tashkil etish, o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini nazorat qilish va hisobga olish va boshqalar.).

N.Muslimov[4] bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarida quyidagi kompetentlik turlarini keltirib o‘tgan:

Yaxlit-mazmunli kompetentlik. Bu talabaning qadriyatli yo‘nalishlari bilan bog‘liq, uning ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunish qobiliyati, mustaqil hayot yo‘lini topa olishi, o‘zining ijtimoiy jamiyatdagagi roli va o‘rnini anglab etishi, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi bilan bog‘liq kompetentlik, u talaba uchun o‘quv va boshqa vaziyatlarda o‘zini aniqlash mexanizmini ta’minlaydi. Talabaning individual ta’lim yo‘nalishi va uning hayotiy faoliyatining umumiyy dasturi ana shu kompetentlikka bog‘liq.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik. Talaba chuqur o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasi bo‘lib, milliy va umuminsoniy madaniyatlar xususiyatlari, inson va insoniyat hayotining ma’naviy-axloqiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an’analarning madaniy asoslari, inson hayotida fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta’siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar, masalan, bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish usullarini bilishi.

O‘quv-bilish kompetentligi. Bu o‘rganilayotgan aniq obyektlar bilan bog‘liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo‘lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to‘plami bo‘lib, unga maqsadni ko‘ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga

shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalar kiradi. O‘rganilayotgan obyektlarga nisbatan talabalarni kreativ ko‘nikmalari, ya’ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi.

Axborot olish kompetentligi. Audio- hamda videoko‘rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, tahlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni o‘zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik talabaning o‘quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Kommunikativ kompetentlik. Ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro munosabatlar, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o‘rin tutuvchi tilni o‘zlashtirish, guruhlarda ishlash ko‘nikmalari, jamoada turli xil ma’naviyima’rifiy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishni bilishni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy-faoliyatli kompetentlik fuqarolik (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil vazifasini bajaruvchi), ijtimoiy-mehnat sohasi (iste’molchi, xaridor, mijoz, ishlab chiqaruvchi huquqlari), oilaviy munosabatlar va majburiyatlar, iqtisod va huquq masalalari, kasbiy, shuningdek, shaxsiy mavqeni aniqlash borasidagi bilim va tajribalarni egallah (xususan, mehnat bozoridagi mavjud vaziyatni tahlil qilish, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ko‘zlab, harakat qilish mahorati, mehnat hamda fuqarolik munosabatlarining odobini bilish)ni anglatadi.

Amaliy faoliyatga oid kompetentlikda bir harakat holatidan ikkinchi harakat holatiga ko‘chira olish, harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo‘nalish olish ko‘nikmalari tushuniladi.

D.Qo‘chqorov[5] Innovatsion yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kunikmalarini rivojlantirishga qo‘yiladigan talabga quyidagilar kiradi:

1. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi ta’lim jarayonida uning kelgusi kasbiy faoliyatini shakllantirish doirasida amalga oshirilishi lozim. Kasbiy tayergarlik tizim hosil kiluvchi tarkibiy kismi xisoblanadi. Ukituvchining didaktik tayergarligining asosiy maksadi uning integrallashgan kasbiy bilim, kunikma va malakalarni egallahdan iborat bulishi kerak.

2. Fanni o‘qitish talaba kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning vositasi bulishi kerak.

z. Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik maxorati uning kasbiy faoliyat darajasi bilan aniklanadi, shuning uchun talaba kasbiy kunikmalarini rivojlantirishning psixologik asosi talimga faoliyatli endashuvdan iborat bulib, bunda O‘qituvchi faliyati va talaba faoliyati ajralgan xolda ko‘rsatilishi kerak. Talabalarning yaqqol namoyon bo‘ladigan hatti- xarakatlarida faoliyatli tavsif ta’lim maksadlarini ifoda etishi, ta’lim mazmunida va ta’lim jarayonida ifodalanishi lozim. Amalga oshirilaetgan faoliyat kasbiy faoliyatning tuzilmasini adekvat ifodalaydi.

4. O‘qituvchi shakllanganligi uning kasbiy darajasi oshganligi bilan aniqlanadi, shuning uchun talabalarning kasbiy tayergarligini amalga oshirishda ta’limga tabaqaqlashgan yondashuv elementlaridan foydalanish kerak. Ta’lim darajasi o‘zlashtirish darajasiga mos bo‘lishi lozim:

- quiy daraja (tushundi, eslab qoldi, qaytarib aytib berdi)

- minimal; o‘rta daraja (o‘zlashtirilganni standart vaziyatda qo‘lladi)

- majburiy; yaxshi daraja (o‘zlashtirilganni nostandart vaziyatda qo‘lladi) – imkoniyat darajasi. Bu darajalar: kuyi daraja kasbiy savodxonlikni ifodalaydi, urta daraja kasbiy lakatlilikni ifodalaydi; yaxshi va yalo darajalar - ijodiy- kasbiy madaniyatni ifoda etadi. Mazkur xolatda kasbiy savodxonlik xakida, kasbiy layokatlilik va kasbiy madaniyat xakida gapirish mumkin. Tabaqaqlashgan yondashuvni amalga oshirish ta’limning tabaqaqlashgan maksadlarini loyixalashda namoyon bulishi kerak.

5. Ta’limga tanlangan yondashuv quyidagi shartlarni qanoatlantiradi: - tabaqaqlashgan maksadlarni loyixalash, talabaning hatti- xarakatlarini ifoda etuvchi: talaba... biladi, talaba... tushunadi, talaba... bajara oladi kabilalar bilan ularning tashxislanuvchanligi ta’minlansa;

- ta’lim mazmunini darajalarga ko‘ra, tabaqaqlashgan, qo‘yilgan maksadlarga erishishga yunaltirilgan kasbiy faoliyatta mos ukuv topshiriklar orkali ifodalansa

- o‘quv mashg‘ulotlarini turlicha tashkiliy shakllari: muayyan pedagogik texnologiyalarga mos ravishda frontal, guruxli, jamoaviy va individual faoliyat shakllarining birikmasidan foydalanish;

- bilim va faoliyat usullarining egallanganligini uchta kurinishda nazorat kilish: kiruvchi nazorat

- talabalarning ishga tay yorgarlik darajasi xakidagi axborotni aniklash va zaruriyat bulsa, bu darajani korreksiyalash; joriy nazorat va xar bir mavzu urganilgandan keyingi korreksiya; yakuniy nazorat, egallanganlik darajasini baxolash uchun,

- pedagogik texnologiyalarga xos bulgan bilimlar va faoliyat usullari egallanganlik darajasini baxolash uchun testlar va turli darajadagi nazorat ishlardan foydalanish.

6. Talabalarining didaktik kasbiy klinikmalar uchun kuyidagilar

zarur:- tavlim maksadlari integrallashgan, yani bilim, klinikma va malakalarning shakllanganigini kamrab olgan bulishi;

- faoliyat shaklida, yani ukuvchilarni xatti-xarakatlari orkali va egallaganlik darajasiga kura tabakalashgan bulishi,

- ta'lismazmuni integrallashgan, yani faoliyatli shakldagi tabakalashgan o'quv toppiriqlari ko'rinishida taqdim etilishi,

- ta'lismaydonini tashkil qilishga integrallashgan yondashuvni qo'llash (integrallashgan mashg'ulotlar), tabaqaqlashgan o'quv shakllaridan foydalanish, boshqa vositalar qatori kompyuterdan foydalanish, tabaqaqlashgan nazorat va tabaqaqlashgan holda ta'lismaydonini baholash;

- ta'limga texnologik yondashuvni faoliyatli tabaqaqlashgan yondashuvlarning qo'shilmasi kabi amalga otirish.

L.Xayitov [6] logopedning kasbiy kompetentligi - nazariy bilimlar va amaliy klinikmalar, shaxs sifatlari ijtimoiy tajriba asosida shakllantirilgan murakkab xosila; bu nutq buzilishlarini to'g'rilashga va bunday buzilishlarga ega bolalarning ijtimoiy imkoniyatlarini oshirishga yo'naltirilgan turli kasbiy diagnostik, metodik, psixologik, korreksion, ijtimoiy vazifalarni xal etishning muayyan kobiliyati ekanligini aniqladi.

Y. Chicherina, D. Nurkeldiyeva va YE. Bondarevalarning [7] «Bo'lajak defektolog-kadrlarni tayerlashda innovatsion yondashuvlar» nomli monografiyasida bo'lajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishning kompetent modeli ishlab chikilgan. Mualliflar tomonidan taklif etilgan bo'lajak defektoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion modelining umumiyligini tuzilmasiga asosan, talabalarning auditoriyadan tashqari o'kuv-bilish faliyatini tashkil etish shakllari (ilmiy-tadqiqot, pedagogik amaliyot, mustaqil kasbiy faoliyat, volontorlik va h.k) o'z aksini topgan.

L.Xayitov [6] bo'lajak defektolog ijtimoiy-pedagogik kompetentligining komponentlarini quyidagicha ta'kidlaydi: ijtimoiy-shaxsiy, kognitiv, kasbiy faoliyatli, analitik-refleksiv. Ijtimoiy-pedagogik kompetentligining komponentlarining majmui bo'lajak logopedning kasbiy faoliyati va shaxsiy o'z-o'zini amalga oshirishiga ko'maklashuvchi darajasiga erishish imkoniyatini ta'minlaydi.

Bo'lajak ta'lismaydonining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida deontologik madaniyatni shakllantirish vazifasining ahamiyati, shuningdek, pedagogik adabiyotlarda ushbu muammoning etarli darajada rivojlanmaganligi deontologik madaniyatni shakllantirish jarayonini ishlab chiqishni taqozo etdi.

Bizningcha, bo'lajak logopedlarni o'qitishda kasbiy kompetentlikni quyidagi to'rtta umumiylig element bilan taqqoslash mumkin: 1) logopedning ixtisoslik fanlar bo'yicha doimiy yangi bilimlarga ega bo'lishi va amaliyotda qo'llay olishi; 2) logopedning pedagogik tajribalarining ortishiga o'zlarining shaxsiy tashabbuskorliklarini namoyon qila olishlari, pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam oshirishlari; 3) kasbiy kompetentlikka oid masalalarni hal etishda pedagogning ijodiy faoliyatini namoyon qila olishi; 4) logopedning pedagogik mahoratini oshirishiga bo'lgan talab, motivatsiyaning tajribada ortishi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish o'z navbatida, mazkur jarayon samaradorligini kafolatlovchi tizimli, faoliyatli va shaxsga yo'naltirilgan omillarni, kasbiy rivojlanishning mezonlari (kasbiy motivatsiya, shaxsiykasbiy sifatlar, o'zini o'zi boshqarish, refleksivlik, kreativlik)ni kasbiy rivojlanish va kasbiy faoliyat muhiti bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lismaydonining deontologik madaniyatini takomillashtirishda intellektual va kreativ tafakkur, ma'naviy etuklik, mavkuraviy uyg'oqlik, jismoniy sog'lomlik, fuqarolik



sezgirligi kabi hislatlar biilan birgalikda o‘z fanini chuqur bilish, ta’limga keng joriy qilinayotgan axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan to‘la foydalana olish, pedagogik texnikaga ega bo‘lish, kompetentlik kabi sifatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Волкова Л.С. Кафедра логопедии им. А.И. Герцена: ее настоящее и проблеми будущего // Учител-дефектолог: совр. проблеми подготовки и совершенствования работы / Под ред. В.А.Лапшина, В.И. Селиверстова. -М., 1990. - С. 23-27.
2. M.Xakimova. Maxsus yordamga muhtoj talabalarni kasbhunarga tayyorlashning pedagogik asoslari (aqli zaif talabalar misolida) mavzusidagi doktorlik dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2010. 41 bet.
3. Жукатинская Е. Н. Формирование профессиональной компетентности будущего учителя-логопеда. Автореферат кандидата педагогических наук., Ставропол -2008
4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. Diss. avtoreferat.T.:1992.15 b
5. Qo‘chqarov D.U. Innovatsion yondashuvlvr asosida bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish.Diss., Toshkent- 2022. 50-52 b
6. Xayitov L.R. Bo‘lajak defektologlarning ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish. Diss.Toshkent- 2021.43 b
7. Чичерина Й., Нуркелдиева Д., Бондарева Е. Инновационные подходы в подготовке кадров-дефектологов.